Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320419

ta´minlashning ustuvor yo‘nalishlari´´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Şenses, F. (2012). Turkey’s experience with neoliberal policies since 1980 in retrospect and prospect. New Perspectives on Turkey, 47, 11-31.

Tufaner, M. B. (2022). Trade liberalization, financial development, and economic growth: A panel Data Analysis on Turkey and the Turkic Republics. Economic Journal of Emerging Markets, 126-137.

Udemba, E. N. (2023). Cushioning environmental damage with institutions and FDI: study of sustainable development goals (SDGs). Environment, Development and Sustainability, 25(9), 10217-10237.

Vasilopoulou, C., Theodorakopoulos, L., & Giotopoulos, K. (2023). Big Data Analytics: A Catalyst for Digital Transformation in e-Government. Technium Soc. Sci. J., 45, 449.

Veckalne, R., & Tambovceva, T. (2023). Evaluating Urban sustainability in Uzbekistan: a novel formula for empirical analysis. Sustainability, 15(9), 7035.

Wang, Z., Huang, Y., Liu, T., Zan, C., Ling, Y., & Guo, C. (2022). Analysis of the water demand-supply gap and scarcity index in lower Amu Darya River Basin, Central Asia. International Journal of Environmental Research and Public Health, 19(2), 743.

Zhang, Y., & Jin, S. (2023). How does digital transformation increase corporate sustainability? The moderating role of top management teams. Systems, 11(7), 355.

MAMLAKATIMIZDA IJTIMOIY-IQTISODIY JARAYONLARNI MOLIYAVIY TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Olimova Nodira Xamrakulovna
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha nomzodi proffessor
Farg‘ona davlat universiteti, olimova_nh@mail.ru

Annotatsiya. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi. Ma‘lumki, makroiqtisodiy barqarorlik mamlakatning YaIM da namoyon bo‘ladi va u davlatning iqtisodiy qudratiga baho beradi. Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblik ta‘minlanib, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlar takomillashtirildi, Soliq va soliqqa tortish tizimi soddalashtirildi, hamda soliq ma‘muriyatchiligi ta‘minlandi. Ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirildi. Shu nuqtai nazardan, mazkur ishda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish hamda ushbu masalaga oid ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiyot, moliyaviy mexanizmlar, byudjet, soliq siyosati, moliyaviy resurslar, makroiqtisodiy barqarorlik, pul-kredit siyosati, soliq va soliqqa tortish, byudjetlararo munosabatlar.

Makroiqtisodiy barqarorlik - bu barqaror narxlar darajasi, ishsizlikning past darajasi, milliy valyutani barqarorligi, kapitalning erkin harakati, uzoq muddatli davrda inflyatsiyani past darajasida davlat tomonidan investitsiyalar va jamg‘armalarni oshirishga sharoit yaratishdir. Hukumatmiz tomonidan ko‘rilgan choralar orqali makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashga erishildi [3].

Published: 23.12.2024

Cite this article: Olimova Nodira Xamrakulovna (2024). Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320419

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ma’lumki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi O‘zbekistonning 2024 yilgi davlat byudjeti loyihasini e’lon qilgan edi. YaIM o‘sishi 5,6-5,8 foiz, inflyatsiya 8-10 foiz darajasida bo‘lishi prognoz qilingan. Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi chegarasini 3 foiz qilib o‘rnatildi, 4 foiz (52,5 trln. so‘m) darajasida tasdiqlash taklif etildi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil uchun makroiqtisodiy rivojlanishi prognoz ko‘rsatkichlari [1]

	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Maqsadli mo‘ljallar	
			2025-yil	2026-yil
	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so‘m	1 301 759	1 540 547	1 725 969
	Yalpi ichki mahsulotning o‘sish surati, foizda	5.6-5.8	6.2	6.4
	Iste’mol narxlari indeksi, o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	8-10	7.5-8.5	5-7
	Sanoat mahsulotlarining o‘sish surati, foizda	6.0	7.6	7.5
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarilishining o‘sish surati, foizda	4.0	4.1	4.1
	Xizmatlarning o‘sish surati, foizda	6.1	6.4	6.7

2024 yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 5,6-5,8 foiz, 2025-2026 yillarda esa mos ravishda 6,2 va 6,4 foiz bo‘lishi, o‘sish sur’atlari, sanoatda 6 foiz, xizmat ko‘rsatish sohasida 6,1 foiz, qishloq xo‘jaligida 4 foiz bo‘lishi prognoz qilingan. Bu ko‘rsatkichlarga “har bir sohada boshlangan tarkibiy islohotlarni sifatli davom ettirish” orqali erishilishi kutilmoqda.

Inflyatsiya 2024 yilda 8-10 foiz, 2025 yilda 7,5-8,5 foiz, 2026 yilda 5,7 foiz bo‘lishi kutilmoqda. Loyihada o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan soliq-byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari keltirib o‘tildi. Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi 2024 yilda YaIMning 4 foizi, 2025-2026 yillarda esa YaIMning 3 foizi chegarasida bo‘lishi kutilmoqda. Hozircha hukumat taqchillikni 3 foiz chegarasigacha qisqartira olmadi, garchi bunday maqsad 2022 yildan beri davlat byudjetida tasdiqlanib kelinayotgan bo‘lsa-da. Byudjet taqchilligini qisqartirish iqtisodiyotdagi yalpi talabning o‘sishini tartibga solishga, shuningdek, tashqi savdo balansining salbiy taqchilligi va inflyatsiya bosimini kamaytirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va Byudjetnoma bo‘yicha matbuot anjumani 2023 yilning 31 oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo‘mitalariga O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi hamda Byudjetnoma kiritildi [1].

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil uchun konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko ‘rsatkichlari, mlrd so‘m [1]

	Ko‘rsatkichlar	2024 yil	Byudjet mo‘ljallari

		uchun prognoz	2025 yil	2026 yil
	Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	375 047,1	452 563,1	515 980,9
	Davlat byudjeti daromadlari	270 322,8	330 600,1	378 600,7
	Davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari	55 350,2	63 921,4	73 222,6
	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyotyot jamgarmasiga tushumlar	18 871,7	22 750,0	25 336,8
	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamgarmalariga tushumlar	30 502,3	35 291,7	38 820,8
I	Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari	427 549,1	498 290,8	567 578,0
	Davlat byudjeti harajatlari	279 626,0	323 770,4	376 798,8
	Davlat maqsadli jamg‘armalari harajatlari	86 822,0	99 115,8	113 006,5
	O‘zbekiston Respublikasi Tiklash va taraqqiyot yo‘lga qo‘yish xarajatlari	18 848,7	22 750,0	25 336,8
	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashkari jamg‘armalari qoplamalarining sarflanishi	30 502,3	35 291,7	38 820,8
	Tashki qarz orqali davlat dasturlariga harajatlar	11 750,0	17 362,9	13 615,0
II	Davlat topshirig‘ini jamg‘armalariga transfertlar	33 142,4	38 758,2	42 611,7
V	Davlat byudjetiga transferlar	24 270,0	13 000,0	18 000,0
	Konsolidatsiyalashgan byudjet saldosi (profitsit +, defitsit -)	-52 502,0	-45 727,6	-51 597,0
I	Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari saldosi (profitsit +, defitsit -)	-40 775,0	-28 364,7	-37 982,0
II	Davlat qarzlarini so‘ndirish	32 271,0	35 776,8	26 250,2

O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi 17 modda va 11 ilovadan iborat bo‘lib, kelgusi yilda Respublikamiz Davlat byudjetining asosiy parametrlari belgilangan. 2024-2026 yillar uchun soliq-byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi 2024 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz etib belgilanib, 2025-2026 yillarda esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik;

- byudjet taqchilligi qisqartirilishi iqtisodiyotda yalpi talabning o‘sishini tartibga solish, o‘z navbatida, tashqi savdo balansi manfiy taqchilligini va inflatsion bosimni kamaytirishga xizmat qiladi.
- o‘rta muddatda asosiy soliq stavkalarini o‘zgartirmasdan saqlab qolish;
- byudjet daromadlar bazasini kengaytirish, berilgan soliq, bojxona imtiyozlarini samarasi va bergan natijasiga qarab qayta ko‘rib chiqish va bosqichma-bosqich bekor qilish;
- soliq va byudjet siyosatini bosqichma-bosqich Jahon savdo tashkilotining talablariga uyg‘unlashtirish;
- davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60 foizlik makroiqtisodiy xavfsiz darajadan oshib ketmasligi uchun barcha choralarni ko‘rish, bunda o‘rta muddatda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 foizdan oshirmaslik;
- yillik byudjetni shakllantirishda “Natijaga yo‘naltirilgan byudjet” tizimini bosqichma-bosqich to‘laqonli joriy etish;
- inson kapitali rivojlanishiga doir xarajatlar ustuvorligini ta’minlash va ijtimoiy himoyaning manzilliligini kuchaytirish;
- ish haqi va pensiya miqdorlarini inflatsiyadan kam bo‘lmagan miqdorda oshirib borish;
- byudjet ochiqligini ta’minlash hamda byudjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish;
- davlat sektorida ichki nazorat va ichki auditni takomillashtirish va kuchaytirish;
- davlat byudjeti loyihasini tayyorlash hamda ko‘rib chiqishda Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini aks ettirish;
- “Yashil byudjetlashtirish” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash mezonlariga (PIMA) muvofiqligini ta’minlash;
- atrof-muhit va tabiat muhofazasi, iqlim o‘zgarishiga moslashish tadbirlarining, suv sarfini kamaytirish va iqtisod qilib ishlatilishini rag‘batlantiruvchi tadbirlarning ustuvorligini ta’minlash;
- barcha sohalarda byudjet xarajatlarini optimallashtirish, iqtisod qilinadigan mablag‘larini yuqori samara beradigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarga yo‘naltirish.

Bunda asosan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va barqaror rivojlanish milliy maqsadlarida nazarda tutilgan ustuvor yo‘nalishlar va vazifalarga erishish inobatga olingan, xususan:

- 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yoki uni aholi jon boshiga 4 ming dollarga yetkazish;
- asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘sishini ta’minlash orqali kelgusi 7 yilda asosiy kapitalga 250 mlrd. dollardan ortiq investitsiyalarni o‘zlashtirish va unda 110 mlrd. dollardan ortiq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, 2030 yilga borib esa yillik eksport hajmini 45 mlrd. dollarga yetkazish va shu kabi boshqa asosiy vazifalardan kelib chiqib prognoz qilindi.

2024 yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 375,0 trln. so‘m miqdorida, xarajatlari esa 427,5 trln. so‘m miqdorida rejalashtirilgan holda konsolidatsiyalashgan byudjet 52,5 trln. so‘m yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz miqdoridagi taqchillik bilan shakllantirildi. Bundan, Davlat byudjeti daromadlari 270,6 trln. so‘m, xarajatlari esa Davlat maqsadli jamg‘armalariga transfertlarni inobatga olgan holda 312,8 trln. so‘m.

Keyingi yilda ham byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilgani saqlab qolinib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, fan, madaniyat va sportni rivojlantirish, muhtoj

aholini uy-joy bilan ta’minlash hamda boshqa ijtimoiy tadbirlar uchun jami Davlat byudjeti xarajatlarining 48 foizi yoki 151,4 trln. so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi. Bunda:

- inson kapitalini rivojlantirish xarajatlariga 102,5 trln. so‘m yoki 2023 yil kutilayotgan ijroga nisbatan 13,5 trln. so‘mga ko‘p rejalashtirilayotgan bo‘lib, shundan maktabgacha va maktab ta’limi sohasiga 56,4 trln. so‘m, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish xarajatlariga 12,7 trln. so‘m, sog‘liqni saqlashga 33,4 trln. so‘m ko‘zda tutilmoqda.
- aholini ijtimoiy himoya qilish jami xarajatlari uchun 18,6 trln. so‘m, shundan kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar to‘lash xarajatlariga 10,3 trln. so‘m mablag‘ rejalashtirilmoqda.
- 2024 yilgi byudjet loyihasida umumta’lim maktablari uchun markazlashgan investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish orqali 170 mingga yaqin yangi o‘quvchi o‘rinlarini tashkil etish va navbatlilik koeffitsiyentini tushirish uchun 4,1 trln. so‘m mablag‘ rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining asosiy moliyaviy hujjatida, asosan, O‘zbekiston 2030 Strategiyasida hamda Barqaror rivojlanish milliy maqsadlarida nazarda tutilgan ustuvor yo‘nalishlar va vazifalar hisobga olingan. Bu yerda, xususan, byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligi katta rol o‘ynaydi. Shunday qilib, kelgusi yilda inson kapitalini rivojlantirishga 102,5 trln. so‘m yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. Bu joriy yilga nisbatan 15 foizga ko‘pdir.

2024 yilda Davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 50 foizi yoki 151,5 trln. so‘mi ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, fan, madaniyat va sportni rivojlantirish, ehtiyojmandlarni uy-joy bilan ta’minlash va boshqa ijtimoiy tadbirlarga yo‘naltiriladi. Prognozga ko‘ra, 2024 yilda davlat byudjetining daromadlari 270,4 trln. so‘mni, davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazmalarni hisobga olgan holda xarajatlar 312,9 trln. so‘mni tashkil etadi [2]. Shu bilan birga, soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanadi, ularga muvofiq asosiy soliq stavkalari o‘zgarishsiz qoladi. Davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari va xarajatlari (byudjetlararo transfertlardan tashqari) 55,2 trln. so‘m va 85,8 trln. so‘m miqdorida rejalashtirilgan. Daromad solig‘i tushumlari 39,7 trln. so‘mga, shu jumladan Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlaridan tushumlar 18,27 trln. so‘mga oshadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha prognoz 9,98 trln. so‘mdan 15,9 trln. so‘mga oshadi. QQS bo‘yicha tushumlar 74,04 trln. so‘m, aktsiz solig‘i - 17,5 trln. so‘m, bojxona to‘lovlari - 14,8 trln. so‘m bo‘lishi kutilmoqda.

O‘rta muddatga mo‘ljallangan jamlanma byudjetni shakllantirish, YaIM va milliy daromadda markazlashtirilgan fondlar ulushini hisoblashda yalpi fiskal yuk ko‘rsatkichiga asoslangan daromad va xarajatlarni shakllantirish, davlat byudjetida davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar jamlanma byudjetning asosiy parametrlari sifatida hisobga olinmoqda. 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan fiskal siyosatda xarajatlarni isloh qilish quyidagilarga yo‘naltirilgan [4]:

- byudjet tushumlari to‘liqligini ta‘minlash, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiya va nafaqalarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirish hamda aholining kambag‘al qatlamini qo‘llab-quvvatlash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, investitsiyaviy jozibadorlikni va ishbilarmonlik faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan soliq siyosati islohotlarini davom ettirish;
- Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;
- Davlat qarzi barqarorligini ta‘minlash va fiskal tavakkalchiliklarni boshqarish;
- vazirlik va idoralarning barcha byudjetdan tashqari hisoblarini qamrab olish orqali konsolidatsiyalashgan byudjet to‘liqligini ta‘minlash;

■ byudjet barqarorligini ta‘minlash, jumladan o‘rta muddatli istiqbolda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini YaIMga nisbatan 2 foizgacha pasaytirish kabilarga yo‘naltirilishi belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida.
https://old.lex.uz/docs/-6707765
2. O‘zbekistonning 2024-yilgi respublika byudjeti daromadlari tarkibi https://oz.sputniknews.uz/20231228/ozbekiston-2024-yil-davlat-byudjeti-41857810.html
3. Фискал Стратегия 2023-2025. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/2023_2025_%D0%B8%D0%B8%D0%BB%D0%BB%D0%B0%D1%80_%D1%83%D1%87%D1%83%D0%BD_%D0%A4%D0%B8%D1%81%D0%BA%D0%B0%D0%BB_%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%B3%D0%B8%D1%8F.pdf
4. https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/pub/fuk_2021_loyixa.pdf

ЦИФРОВАЯ БУХГАЛТЕРИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ И УГРОЗЫ

Исманов Иброхим Набиевич
Ферганский политехнический институт, зав.кафедрой “Экономика”, д.э.н., профессор
i.ismanov@ferpi.uz

Аннотация. На сегодняшний день развитие цифрового бухгалтерского учета и внедрение облачных технологий привело к изменениям в сущности данной области. Исходя из этого, в данном исследовании мы рассуждали о перспективах и угрозах цифрового бухгалтерия, поскольку сегодняшние реформы служат основой для будущего. На основе результатов исследования сформулированы выводы по реформированию цифрового бухгалтерского учета.

Ключевые слова: цифровая трансформация, цифровой бухгалтерский учет, цифровые технологии, бухгалтерские процессы, автоматизация бухгалтерских процессов.

В современном мире, на фоне стремительных технологических изменений, область бухгалтерии не осталась в стороне, переходя в эру цифровой трансформации. Цифровая бухгалтерия становится неотъемлемой частью бизнес-процессов, открывая перед предприятиями новые горизонты эффективности и функциональности. В данном контексте крайне важно рассмотреть, как перспективы, так и потенциальные угрозы, связанные с внедрением цифровых технологий в бухгалтерскую сферу.

Первоначально, целесообразно понять суть цифровой бухгалтерии, охватывающей широкий спектр инновационных методов и инструментов для учета и анализа финансовых данных. Этот процесс, в свою очередь, представляет собой не только технологическое обновление, но и культурный сдвиг в самом подходе к бухгалтерии [1]. Следовательно, введение цифровых технологий не только современно, но и стратегически важно для успешного функционирования организаций в динамичной бизнес-среде.

Далее глубоко исследуем перспективы и угрозы, сопутствующие этому процессу цифровой трансформации в области бухгалтерии. В рамках анализа рассмотрим выгоды, ожидаемые от внедрения цифровых технологий, а также